



ZAMONAVIY JAMIYATDA SURROGAT ONALIK INSTITUTI: HUQUQIY MOHIYAT VA TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI

Toshkent davlat transport universiteti
Yurisprudensiya(xalqaro transport huquqi)
yo'nalishi talabasi
Erkinjonov Farruxbek Niyozmurod o'g'li.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy jamiyatda surrogat onalik institutining huquqiy mohiyati, uning normativ-huquqiy asoslari hamda sud amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda surrogat onalik institutining shakllanishi, zamonaviy turlari va yordamchi reproduktiv texnologiyalar bilan uzviy bog'liqligi, bola huquqlari, ota-onalik maqomini aniqlash, surrogatlik shartnomalarining yuridik kuchi hamda xalqaro va milliy sud amaliyotida ushbu institutning qo'llanilishi chuqur tahlil qilinadi. Xususan, *World Health Organization* ma'lumotlariga asoslanib mavzuning dolzarbligi yoritiladi hamda xorijiy tajriba va *European Court of Human Rights* amaliyoti qiyosiy-huquqiy metod orqali o'rganiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasida surrogat onalik institutining normativ-huquqiy jihatdan yetarlicha tartibga solinmaganligiga asoslanib, gestatsion surrogatlikka cheklangan tarzda ruxsat berishga qaratilgan milliy model hamda aniq normativ-huquqiy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: surrogat onalik, gestatsion tashuvchi, yordamchi reproduktiv texnologiyalar, reproduktiv huquqlar, bioetika, ota-onalik maqomi, bola manfaatlari, huquqiy vakuum, Oila kodeksi.

Zamonaviy biotibbiyot taraqqiyoti reproduktiv huquqlarning yangi shakllarini yuzaga chiqarmoqda. Xususan, surrogat onalik instituti yordamchi reproduktiv texnologiyalarning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda shakllangan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon miqyosida bepushtlikning keng tarqalishi mazkur institutga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda.



XXI asrda bepushtlik muammosi global miqyosda keng tarqalgan bo'lib, yordamchi reproduktiv texnologiyalar ushbu muammoni hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda, so'nggi global baholashlarga ko'ra, har olti juftlikdan biri farzand ko'rishda qiyinchiliklarga duch keladi.¹ Markaziy Osiyo hududida, jumladan O'zbekistonda ham klinik kuzatuvlarga ko'ra turmush qurgan juftliklarning taxminan 10–15 foizigacha bo'lgan qismi reproduktiv muammolarga ega.² Surrogat onalik biologik ota-ona bo'lish imkoniyatidan mahrum shaxslar uchun muqobil mexanizm sifatida qaraladi, biroq u faqat tibbiy xizmat emas, balki ota-onalik maqomi, bolaning huquqiy holati hamda inson qadr-qimmatini qamrab oluvchi kompleks huquqiy konstruksiyadir. Mazkur institut shartnoma huquqi, oila huquqi va inson huquqlari kesishgan nuqtada joylashgan bo'lib, uni tartibga solishda davlatdan muvozanatli normativ yondashuv talab etiladi. Huquqiy doktrinada surrogat onalik ayolning boshqa shaxslar foydasiga homilador bo'lishi va tug'ilgan bolani topshirish majburiyatini ixtiyoriy ravishda o'z zimmasiga olishini anglatadi. Amaliyotda uning ikki modeli farqlanadi: an'anaviy va gestatsion. An'anaviy modelda surrogat ona bolaning genetik onasi bo'lib qoladi va bu ota-onalik maqomini aniqlashda jiddiy nizolarni yuzaga keltiradi. Gestatsion modelda esa surrogat ayol bola bilan genetik aloqaga ega bo'lmaydi, shu sababli huquqiy jihatdan barqarorroq mexanizm sifatida e'tirof etiladi.

Xalqaro tajribada surrogat onalikka yondashuv keskin farqlanadi. Ayrim davlatlar tijorat surrogatligiga ruxsat bergan liberal modelni qo'llasa, boshqa mamlakatlarda inson qadr-qimmatining ustuvorligi sababli mazkur institut to'liq taqiqlangan. Buyuk Britaniya va Isroilda esa faqat beg'araz (altruistik) surrogatlikka yo'l qo'yiladi. Ushbu tafovutlar transchegaraviy "reproduktiv turizm", bolaning fuqaroligi va ota-onalik maqomini belgilashda jiddiy kolliziyalarni yuzaga keltirmoqda. Sud amaliyotida bolaning eng ustuvor manfaatlari tamoyili asosiy mezon sifatida qaraladi. European Court of Human Rights tomonidan ko'rib

¹ World Health Organization. *Infertility*, 2023, <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/infertility>

² Infertility: Prevalence and Consequences- Global infertility prevalence Obeagu E.I., Njar V.E., Obeagu G.U., 2023, <https://ijcrps.com/pdfcopy/2023/july2023/ijcrps5.pdf>



chiqilgan *Mennesson v. France, Labassee v. France* hamda *Paradiso and Campanelli v. Italy* ishlarida biologik bog'liqlikni tan olish va bolani huquqiy noaniqlikda qoldirmaslik zarurligi ta'kidlangan. Surrogat onalik chuqur bioetik va diniy masalalarni ham keltirib chiqaradi. Tijorat surrogatligi iqtisodiy jihatdan zaif ayollarning ekspluatatsiyasi hamda bolaning "shartnoma obyekti"ga aylanishi xavfini kuchaytiradi.

Islom huquqiy yondashuvlarida surrogat onalik masalasi naslning saqlanishi tamoyili asosida baholanadi. Ko'pchilik fiqhiy qarashlarga ko'ra, uchinchi shaxsning biologik materialini ishtirok etmagan, ya'ni faqat er-xotinning o'z jinsiy hujayralaridan foydalanilgan gestatsion surrogatlik ayrim zarurat holatlarida shartli ravishda maqbul deb qaraladi. Bunda bolaning genetik ota-onasi aniq belgilanishi hamda nasabning aralashib ketishiga yo'l qo'yilmasligi asosiy talab sifatida e'tirof etiladi. Hanafiy huquq maktabida ushbu tamoyil qat'iy saqlanib, uchinchi shaxs ishtirok etgan reproduktiv aralashuvlar rad etiladi, biroq faqat er-xotinning biologik hujayralariga asoslangan va surrogat ona genetik jihatdan bola bilan bog'liq bo'lmagan gestatsion model tibbiy zarurat mavjud bo'lgan holatlarda muhokama qilinishi mumkin. Shu bilan birga, bolaning huquqiy ota-onasi sifatida biologik juftlikni e'tirof etish, surrogat onani esa faqat homilani ko'taruvchi shaxs sifatida belgilash zarurligi ta'kidlanadi. Tijorat surrogatligi esa inson tanasining tijorat obyekti sifatida qaralishi hamda ijtimoiy jihatdan zaif ayollarning ekspluatatsiyasi xavfi sababli nomaqbul deb baholanadi. Mazkur yondashuv O'zbekiston Respublikasida oilaning muqaddasligi, onalik va bolalikning davlat tomonidan himoya qilinishi hamda bolaning manfaatlari ustuvorligi haqidagi konstitutsiyaviy prinsiplarga hamohangdir. O'zbekiston huquq tizimida surrogat onalik hozircha maxsus tartibga solinmagan. Oila kodeksi hamda "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunda yordamchi reproduktiv texnologiyalarga umumiy ruxsat mavjud bo'lsa-da, surrogat ona bilan biologik ota-onalar o'rtasidagi shartnomalar, bolaning huquqiy maqomi va ota-onalikni rasmiylashtirish mexanizmlari aniq belgilanmagan. Natijada mazkur institut na ruxsat etilgan, na taqiqlangan holatda qolib, huquqiy bo'shliq yuzaga kelmoqda.



Xulosa qilib aytganda maqolada surrogat onalik institutining huquqiy mohiyati, xalqaro tajriba va sud amaliyoti asosida uning murakkab ijtimoiy-huquqiy tabiatga egaligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari tijorat surrogatligi bilan bog'liq bioetik xavflar mavjudligini, shu bilan birga gestatsion model huquqiy jihatdan nisbatan barqaror mexanizm ekanini ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasida mazkur institutning maxsus tartibga solinmaganligi huquqiy vakuum yuzaga keltirayotganini inobatga olib, milliy mentalitet va diniy-huquqiy qarashlarga mos muvozanatli yondashuv zarurligi xulosaga kelindi. Shu munosabat bilan quyidagi normativ-huquqiy choralarni joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

— gestatsion surrogatlik asosida tug'ilgan bolaning ota-onasini biologik juftlik sifatida e'tirof etuvchi norma kiritish;

— faqat tibbiy ko'rsatmaga ega, rasmiy nikohdagi juftliklar uchun beg'araz surrogatlikka ruxsat berish;

— surrogatlik shartnomasini majburiy notarial tasdiqlash va davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazish;

— surrogat ona uchun majburiy tibbiy sug'urta va ijtimoiy kafolatlar yaratish;

— bolaning tug'ilishi bilan biologik ota-onani FHDYO organlarida avtomatik qayd etish mexanizmini joriy etish.

Mazkur yondashuv reproduktiv huquqlarni ta'minlash bilan bir qatorda, bolaning manfaatlari va inson qadr-qimmatini ustuvor qo'ygan shaffof va nazorat qilinadigan milliy huquqiy modelni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2023.
3. World Health Organization. *Infertility prevalence estimates, 2024*. – Geneva, 2024.



4. European Court of Human Rights. *Case of Mennesson v. France* (Application No. 65192/11). – Strasbourg, 2014.
5. European Court of Human Rights. *Case of Labassee v. France* (Application No. 65941/11). – Strasbourg, 2014.
6. European Court of Human Rights. *Paradiso and Campanelli v. Italy* (Application No. 25358/12). – Strasbourg, 2017.